

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globalashuv jarayonlarining O'zbekistondagi mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari.....	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari.....	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'naviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati.....	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi	218



UO'K: 1.1 + 2(091)

**SHARQ ALLOMALARINING ILMIY MEROSIDA BAG'RIKENGLIK VA MUROSA
MADANIYATI MASALASI VA UNING YURTIMIZ TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI****ПРОБЛЕМА КУЛЬТУРЫ ИСПОВЕДИ В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ УЧЕНЫХ ВОСТОКА И
ЕЕ МЕСТО В РАЗВИТИИ НАШЕЙ СТРАНЫ****THE ISSUE OF THE CULTURE OF TOLERANCE AND CONFESSION IN THE SCIENTIFIC
HERITAGE OF EASTERN SCIENTISTS AND ITS PLACE IN THE DEVELOPMENT OF OUR
COUNTRY****Sultonova Latofat Saydullayevna** 

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy merosida, falsafiy ta'limotida ijtimoiy hayotdagi munosabatlar, davlat va din munosabati xususida so'z borar ekan, ularning o'zlarining tolerantlik, bag'rikenglik haqidagi Sharqona konsepsiyalarini yarata olganliklari haqida so'z boradi. Sharq mutafakkirlarining bag'rikenglik va millatlararo ahil qo'shnichilik tamoyillari xususidagi konsepsiyalarining asosiy mohiyati inson ma'naviy, ruhiy holati bilan bevosita bog'liq holda talqin etilgan.

Аннотация

В статье рассматривается научное наследие и философские учения наших великих мыслителей, в которых рассматриваются вопросы общественной жизни, взаимоотношения государства и религии, а также то, как им удалось создать собственные восточные концепции толерантности и терпимости. Основная суть концепций восточных мыслителей о принципах толерантности и межнационального добрососедства трактуется в непосредственной связи с духовно-психическим состоянием человека.

Abstract

This article discusses the scientific heritage and philosophical teachings of our great thinkers, which speak about relations in social life, the relationship between state and religion, and how they were able to create their own Eastern concepts of tolerance and tolerance. The main essence of the concepts of Eastern thinkers on the principles of tolerance and interethnic good-neighbourliness is interpreted in direct connection with the spiritual and mental state of a person.

Kalit so'zlar: bag'rikenglik, komil inson, ruhiy kamolot, ma'naviy kamolot, komillik, tolerantlik, do'stlik, tinchlik, ezgulik.

Ключевые слова: толерантность, совершенный человек, духовное совершенство, духовная зрелость, совершенство, терпимость, дружба, мир, добро.

Key words: tolerance, perfect person, spiritual perfection, spiritual perfection, perfection, tolerance, friendship, peace, goodness.

KIRISH

Bag'rikenglik – yon berish, andisha yoki hushomad emas. Bag'rikenglik – eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham bag'rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim. Bag'rikenglikning tarixiy ildizlariga murojaat etar ekanmiz, yuqorida tilga olingan davrlarning tarixiy jarayonlarlarida xilma-xil e'tiqodlar, urf-odatlar, moddiy madaniyatning keng hududiy doirasida yoyilishiga yordam bergan tinch ta'sir yo'lini kuzatish mumkin. 2000 yilning sentabrida BMTning bo'lib o'tgan Ming yillik samitida, to'plangan dunyodagi ko'pgina mamlakatlar rahbarlari insoniyat oldida turgan va sivilizatsiyani saqlab qolish maqsadida kechiktirmay hal etilishi lozim bo'lgan asosiy muammolarni belgilab oldilar. Chunki bugun millatlarning o'zligini anglash jarayoni globallashuvning o'tkazayotgan ta'siri natijasida har qachongiga qaraganda ham tez rivojlanmoqda. O'zining nomi bilan ataluvchi davlatlardan yiroqda yashayotgan millat va elatlar vakillari eng zamonaviy axborot vositalari yordamida o'z millatdoshlari, [1] ularning turmush tarzi,

taraqqiyot darajasi va muammolari haqida bir zumda zarur ma'lumot olish imkoniyatiga egadirlar. Dunyodagi deyarli barcha mamlakatlar ko'p millatli hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, har bir millatning "Men"ligini qaror toptirish zaminida millatlarning o'zaro erkin hamkorligiga, madaniyatlarning o'zaro tabiiy ta'sirlashuvi natijasida ularning har birining boyishiga yo'l ochadi. Bag'rikenglik tarbiyasiga oid biron-bir tadbirni o'tkazishdan avval bu haqida jamoatchilik fikrini so'rab ko'rish maqsadga muvofiqdir, maktab va kollejlarning o'quvchilarigina emas, hatto oliy o'quv yurtlarining talabalari ham, ko'pincha "bag'rikenglik-tolerantlik" tushunchasi bilan tanish emasliklari faoliyat davomida tez-tez ma'lum bo'lib qolmoqda. Shu sababli, "bag'rikenglik" degan umumiy nom bilan munozara klublari — davra suhbatlarini o'tkazish zarur. [2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Ta'lim sohasidagi bag'rikenglik haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu masalada pedagogika jarayonini aniq maqsadni ko'zlab, asosli ravishda qayta qurish, chunonchi, ta'limning mazmuni, tarbiyaviy vositalari va o'quv usullarini puxta o'ylab tanlash, o'quvchi va talabalarning darsdagi va darsdan tashqari mashg'ulotlarini nihoyatda puxta o'ylab yo'lga qo'yish, avvalo, bag'rikenglikni yoshlar ongiga singdirish uslubini chuqur ishlab chiqish kerak bo'ladi. Shuni nazarda tutish kerakki, yoshlar ongida yangicha qadriyat tushunchasini shakllantirish ko'p jihatdan ta'lim tizimi qanday tashkil etilishiga bog'liq ekanligini unutmaslik kerak. Binobarin, O'zbekistonning barcha ta'lim muassasalarida yoshlarni ezgulik, adolat, demokratiya qadriyatlari ruhida tarbiyalashga, ularni mustaqil o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlik, ijtimoiy faollik, xilma-xil axborotlardan to'g'risini tanlash va ularni tanqidiy baholashga, bilimlarning yangi-yangi sohalarini o'rganishga ishtiyoqmand qilib voyaga etkazishga alohida e'tibor berilishi talab qilinadi. Agar masalaga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, biz yashab turgan davrda bag'rikenglik, keng ma'noda olganda, umuman, jahondagi ilg'or tajriba zamiridagi umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarni va madaniy xalqlar milliy turmushidagi yaxshi an'analarni davom ettirib, rivojlantirish barobarida o'zaro hurmat, birdamlik va hamnafaslikka zamin yaratadi. Xullas, globallashuv sharoitida sivilizatsiya zamirida orttirilgan va milliy madaniyatlar zaminida rivojlanib borayotgan umumbashariy qadriyatlar odamlar o'rtasida zamonaviy bag'rikenglik mavzusi mustaqillik sharoitida, chinakam fuqarolik jamiyati qurilganidan keyin haqiqiy maqomga ega bo'lganligini alohida ta'kidlamok kerak.[3] Hozirda ko'p madaniyatli ta'lim makonini vujudga keltirish muammosi ta'limning barcha bosqichlariga tatbiq etilmoqda. Oliy o'quv muassasalarida turli millatlarga mansub yigit va qizlar birgalikda ta'lim olishi sababli, bu joylarda bag'rikenglik tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish zarur. Millatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish borasida O'zbekiston o'ziga xos tajriba orttirdi. Bunda faqat milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash bilan cheklanmaslik, balki mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida "O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi", deya qayd etilgan. [4] O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashab, mehnat qilayotgan har bir kishi, millati va irqiy mansubligidan, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, mamlakatimizning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosib.

NATIJA VA MUHOKAMA

Respublikamizda millatlararo totuvlikni ta'minlash orqali tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlab borish g'oyasi davlatimiz birinchi rahbarining doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan. "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" asarida bu xususda shunday deyiladi: "Bu hayotning shafqatsiz bir qonuniyati bor. Ya'ni, tarixning murakkab va hal qiluvchi burilish pallasida har qanday millat va elat o'z ahilligi va birdamligini saqlab, o'z milliy manfaatlari yo'lida qat'iyat bilan turmasa, mas'uliyat va hushyorligini yo'qotadigan bo'lsa, oxir-oqibatda o'zining eng katta, tengsiz boyligi bo'lmish mustaqilligi va ozodligidan judo bo'lishi shubhasiz".[2] Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va izchil tatbiq etilgan taraqqiyotning o'zbek modeli tufayli yurtimizda millatlararo totuvlik va hamjihatlik qaror topdi. Mazkur masalaga to'xtalib, Birinchi Prezident "O'zbekistonning boylig'lar ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz, bu - jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir", degan edi. Aynan, xuddi shu taraqqiyot yo'lini tanlagan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi 5.1.masala ham xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishdan iboratligi bejiz emasligini davrning o'zi isbotlamogda .

FALSAFA

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng islohotlar orasida buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosini o'rganish, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida benazir allomalarimizning purma'no hikmatlari va asarlaridan samarali foydalanishni zamonning o'zi taqozo etmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks – sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin"[8].

Ertangi kunimiz, hayotimizning farovonligi, zamondan orqada qolmaslik, taraqqiy topgan davlatlardan va xalqlardan kam bo'lmaslik, bir so'z bilan aytganda, ertangi istiqbolimiz, barcha ezgu niyatlarimizning amalga oshirilishida, birinchi navbatda, o'sib kelayotgan yosh avlodlarimizni har tomonlama etuk insonlar qilib tarbiyalash, voyaga etkazishga bog'liq. [10].

Aslida insoniyat sivilizatsiyasining ma'no – mazmuni ham komillik, shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilishdan iboratdir. Quroni Karimda: "Afvni ixtiyor eting, yaxshilikka buyuring, johillardan esa yuz o'giring! [2.-B.107.], deya buyurilgan. Komil inson g'oyasi qadimdan xalqimizning ezgu orzusi bo'lib kelgan. "Avesto"da ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal komillikning uch belgisi sifatida ajratilib ko'rsatilganligi fikrimizning isbotidir.

Ayniqsa, komil inson g'oyasi islom falsafasidan oziqlanib, to'laqonli ma'no kasb etgan. Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Alisher Navoiy asarlarida, Imom Buxoriy hadislari-yu, Bahouddin Naqshbandning "Dil ba yoru, dast ba kor" tamoyilida komil inson g'oyasi takomilga erishdi. Xalqimiz, mutafakkir ajdodlarimiz ijodida ko'plab komillik timsollari yaratildi. Shiroq, Alpomish, Farhod singari mardlik va jasurlikning badiiy timsollari, sohibqiron Amir Temur va Alisher Navoiy singari xalqparvarlik, vatanparvarlik timsollari shular jumlasidandir. Komil inson shunday insondirki, u avvalo, din-u diyonatini mustahkam tutgan, muayyan g'oya va maslakni e'tiqod darajasiga ko'targan, o'zidagi qusurlarni ilm – ma'rifat ne'matlari asosida bartaraf eta olgan, nafs va hoy-u - havasni irodasiga tayanib boshqara olgan kishidir. Maxdumi A'zamning ta'biri bilan aytganda: "Kimki xizmat va g'ayrat qilsa, xususan, jamoat uchun xizmat qiluvchi bo'lsa va uning xizmatidan boshqalar manfaat ko'rsa, undaylarga olam ul-g'aybdan ko'p fayzlar etadi. Kimki, jamoat manfaatlari uchun xizmat qilib, olam ul-g'ayb fayziga musharraf bo'lgan bo'lsa, bunday kishi saodatli-baxtli kishidir." [6.-B.55]

Sharq mutafakkirlarining asarlarida va falsafiy ta'limotlarida xamjixatlik, diniy bag'rikenglik g'oyalariga ko'p murojaat etildi. Shundan kelib chiqib aytish mumkin-ki, tolerantlik tushunchasi barcha zamonlarda dolzarb mavzulardan hisoblangan va bugungi globallashuv sharoitida ham uz ahamiyatini yo'qotmagan muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Shunday buyuk allomalarimizdan biri Sharqda "Muallimi - soniy"- "Ikkinchi muallim" nomi bilan shuhrat qozongan mashhur mutafakkir olim, qomusiy alloma Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida gumanizm, adolat, donishmandlik, davlat boshqaruvida odillik kabi bag'rikenglik fazilatlarini juda ulug'lagan. Bag'rikenglik fozil odamning eng asosiy fazilati sifatida ulug'lanadi. "Aholilarning diniy e'tiqodlari xurofiy, xato dunyoqarashlarga asoslangan shaharlarni jaholatdagi yoki adashgan shaharlar deymiz" [6.-B.163.]. Mutafakkir "Fozil odamlar shahri" asarining 34-bobini shunday jumlar bilan boshlagan va ba'zi mavjudotlar o'z-o'zini himoya qilish, o'z zotini yo'qolib ketishdan asrash uchun boshqa o'ziga qarshi bo'lgan mavjudotlar bilan kurashishga intiladilar deb ta'kidlaydi. Chunki tinchlik va osoyishtalikda yashayotgan insonlar hayotiga rahna solish, besabab qon to'kilishiga sabab bo'lish hamda xalqlar orasida turli diniy ixtiloflarni qo'zg'atish gunohdir. Xalqlar o'rtasida tinchlik va barqarorlikni o'rnatish, o'zaro totuv va hamjihatlikda yashash lozimligi g'oyalariga Forobiy o'z asarlarida ko'p to'xtalgan. [11].

Mutafakkir insonlarni o'zaro hamjihatlik va totuvlikda yashashga da'vat etgan holda ular o'rtasida tabiiy yoki ixtiyoriy bog'lanishlar yo'qligini, insoniyatning bir-biriga zarar etkazishi yoki tinchligini buzishga qaratilgan turli g'oyalarning ilgari surishi zamirida o'zaro manfaat yotishini ta'kidlab o'tgan. Ba'zi insonlar o'z hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun boshqa odamlarni ular bilan birlashishga majbur qilib, atrofidagilarni o'ziga bo'ysundirib, o'ziga etarli miqdorda xayrixohlarni to'playdi. Ba'zi toifa odamlar esa mehr-oqibat, o'zaro do'stlik va tolerantlik nuqtai nazaridan birlashib, to'qlikda va farovonlikda yashaydi. Ikkinchi toifadagi kishilar birinchi toifa kishilariga nisbatan kuchliroq, baxtliroq va yoqimliroqdir, deydi Forobiy. "Yana ba'zilar o'ylashicha, odamlar o'rtasidagi bog'lanish robitalari (bog'liqlik) shu odamlarning xulq-atvori, tabiati, fe'li va tilining umumiyligiga asoslanadi. Har bir xalq o'ziga xos mana shunday xususiyatlarga ega. Shu tufayli har har bir xalq

vakillari boshqa xalq vakillariga aralashib, qo'shilib ketmasligi kerak. Chunki, turli xalqlar xuddi ana shu xususiyati bilan farqlanib turadi"[7.-B.173.]. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy o'zining mashhur "Fozil odamlar shahri" asarida shunday yozadi: "...kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi". Bunday hamjihatlik jamiyatda tinchlik va totuvlikning, barqaror taraqqiyotning mustahkam kafolatini ta'minlaydi. Xullas, Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar atrofida bo'ladigan munozaralarda muhim ahamiyat kasb etadi. [12].

Hozirgi davrda tolerantlik va hamjihatlik g'oyasi jamiyatdagi barcha qatlam, ijtimoiy guruh va millatlarning ezgulik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutadi va mamlakatda tinchlik, barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Yer yuzidagi barcha millat va elatlar, ijtimoiy guruhlar o'zaro tinchlik va totuvlik yo'lida ijtimoiy hamkorlik qilishi lozimligi masalasi ham Jomiy falsafiy – irfoniy qarashlarida etakchi o'rinni egallaydi. Aslida er yuzidagi barcha insonlarning dunyoqarashi, manfaatlar turlicha bo'ladi, binobarin, ular bir – biridan farq qiladi. Lekin ular uchun umumiy maqsad – o'zi istiqomat qilayotgan zaminining ravnaqi, tinchligi, farovonligi pirovard maqsad bo'lishi bugungi jadal suratlarda rivojlanayotgan axborot asrida dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Abdurahmon Jomiy ta'biri bilan aytganda, butun insoniyat o'rtasida o'zaro hamkorlikni yaxshilash, jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlash xilma – hil g'oyalar va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxslarning umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligini ta'minlashga zamin yaratadi. Hamjihatlik va tolerantlik insonlarning o'zaro turli manfaatlar, qarama – qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatini ta'minlaydigan kuchli mayoqdir [13].

Alisher Navoiy buyuk davlat arbobi va shoir sifatida Sharq xalqlarida juda mashhurdir. U o'zining ahloqiy – falsafiy qarashlarida Odam va Olam mohiyati xususida ko'p fikrlar bildirgan. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" asarining o'n oltinchi maqolatida "odamiylik odamiysi" haqida so'z yuritib, shunday deydi "necha jaf o'lsa, vaf o' aylagan, turli sinovlarga va mashaqqatlarga sabr bilan chidagan va hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaydigan kishi "bashar ahlining insonidir", deya ta'rif beradi. Shuningdek, Navoiy asarlarida do'stlik va ahillik, adolat va tinchlik kategoriyalari xususida ham to'xtalib o'tilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, tinch, farovon yashash, insonlarni hamjihatlikka chorchash, birdamlik va barqarorlikda yashash g'oyasi necha asrlardan buyon o'z umumbashariy ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda. Buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosini asrash, ularning ezgulikka yo'g'rilgan g'oyalariga ergashish va o'sib kelayotgan yosh avlodlarni vatanparvarlik, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi kunda barchamizning oldimizda turgan eng ustuvor masalalardan biridir. [7.-B.13.]. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz avvalo tub negizida O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak" degan g'oya mujassam bo'lgan O'zbekistonning tinchlik va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy yo'lini izchil davom ettiramiz. Hozirgi o'ta notinch va murakkab zamonda bebaho boyligimiz bo'lgan tinch va osoyishta hayotni ko'z qorachig'idek saqlash, jamiyatimizda millatlararo va dinlararo hamjihatlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bizning eng muhim va ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй.). Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2010.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналмилал маданият маркази ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи. 2017 йил 24 январь.
3. Муртазаева Р.Х. Миграционные процессы в Узбекистане в конце XX – начале XXI веков: исторические события и новые тенденции (учебное пособие для магистров). – Германия: Lambert, 2015.
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б.7.
5. Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маънолар таржимаси, (Аъроф сураси, 199-оят) Б-107.
6. Абу наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри.Т., Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси, 1993 й. 160-б.
7. Маҳдуми Аъзам."Танбият ус-салотин". Таржима муаллифлари Б.Валихўжаев ва К.Каттаев.Сугдиёна – 1994.Б. 55.
8. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Т.:Ўзбекистон, 2017.-Б.13.
9. Jo'raqulovich, S. J. (2023). O'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(13), 191-197.

FALSAFA

10. Shodiyev, J. J. (2023). ROLE OF NUMBERS IN HUMAN WORTH AND DEVELOPMENT. *SCHOLAR*, 1(28), 252-257.
11. Qakhorova, S. (2023). PHILOSOPHICAL AND THEORETICAL TEACHING OF AMIR KHUSRAV DEHLAVI. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 17-17.
12. Jahongir, S. INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MAY IN THE RUBA OF UMAR KHAYYAM. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 126.
13. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. и др. Дальверзинтепе– кушанский город на юге Узбекистана. – Ташкент, 1978.-стр.52.